**"TASDIQLANGAN"**

Muassislarning 2025-yil 11-avgustdagi 3-yig'ilish bayonnomasiga asosan

**TURKIY DAVLATLAR XALQARO UNIVERSITETI**
mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi
nodavlat oliy ta'lim tashkilotining

# USTAVI

**Toshkent- 2025**

## 1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur ustav "Turkiy davlatlar xalqaro universiteti" nodavlat oliy ta'lim tashkiloti (keyingi o'rinlarda - "Universitet")ning maqomi, maqsad va vazifalari, ta'lim jarayonini va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Universitet O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-yanvardagi PQ-24-son "Turkiy davlatlar xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida" qaroriga asosan tashkil etilgan bo'lib, o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshiradi.

3. Universitet o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasi qaror va farmoyishlari, Universitet muassislarining qarorlari hamda mazkur Ustavga amal qiladi.

4. Universitet mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi yuridik shaxs bo'lib, o'z mustaqil balansiga, mulkiga, haxsiy g'azna hisobvaraqlariga, O'zbekiston Respublikasining tijorat banklarida xorijiy valyutada talab qilib olinadigan depozit hisobvarag'iga, o'z nomi yozilgan muhr, blank, shtampga, o'z faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa belgi va rekvizitlarga ega bo'ladi.

Universitetning to'liq rasmiy nomi:

davlat tilida - "Turkiy davlatlar xalqaro universiteti (TDXU)";

turk tilida - "Turk devletleri uluslararasi universitesi (TDUU)";

rus tilida – «Международный университет Тюркских государств» (МУТг)".

ingliz tilida - "International university of Turkic states (IUTS)";

Universitetning yuridik manzili: Tashkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa avtomobil yo'li ko'chasi, 3 va 3a-uylar.

5. Universitet muassislari - Respublika oliy ta'lim kengashi (O'zbekiston Respublikasi) va Turkiya oliy ta'lim kengashi (Turkiya Respublikasi) hisoblanadi. Respublika oliy ta'lim kengashi manzili: O'zbekiston Respublikasi, Tashkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori-Niyoziy ko'chasi 39-uy. Turkiya oliyta'lim kengashi manzili: Universiteler Mh., 1600. Cad. No:10, 06800 ankaya / Ankara.

## 2-bob. Universitetning asosiy maqsad va vazifalari

6. Universitetning asosiy maqsadi turkiy davlatlar o'rtasida keyingi yillarda tobora rivojlanib borayotgan siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni yanada kengaytirish, ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalar sohalarida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash hamda ilg'or xalqaro tajribalar asosida malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdan iborat.

Yuqorida qayd etilgan maqsadlarga erishish uchun Universiter asosiy faoliyat turi sifatida Oliy ta'lim bilan shug'ullanadi. Universitet nodavlat oliy

ta'lim xizmatlarini ko'rsatish faoliyati bilan litsenziyalovchi organdan belgilangan tartibda litsenziya olingandan so'ng shug'ullanadi.

7. Universitetning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

muhandislik, qurilish, logistika, axborot texnologiyalari va dasturlash, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati hamda iqtisodiy va ijtimoiy soha uchun xalqaro standartlarga muvofiq oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash;

o'quv dasturlarini xorijiy, shu jumladan, Turkiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda, shuningdek, qo'shma ta'lim dasturlari asosida joriy etish hamda ilmiy-tadqiqotlar olib borish;

ta'lim va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida yetakchi xorijiy oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlikni va talabalarning akademik mobilligini yo'lga qo'yish;

professor-o'qituvchilar stajirovkasi va malaka oshirishini nufuzli xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida tashkil etish orqali ularning ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirib borish;

talabalarda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish, Vatanga muhabbat, kasbga sadoqat hissini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya jarayoni hamda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish;

universitetda ta'lim jarayoni ta'lim sohasida xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar reytingida birinchi 1000 talik ro'yxatga kirgan, shuningdek, o'z yo'nalishida yetakchi hisoblangan Turkiya Respublikasi hamda boshqa turkiy davlatlarning nufuzli oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda ta'lim dasturlari yo'lga qo'yish;

tegishli ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv majmualarini, qo'llanmalarni yaratish va ularni o'quv jarayonlariga tatbiq etish;

xorijiy hamkorlar bilan birgalikda kadrlarni tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini (double degree) amalga oshirish, o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni jalb qilish;

"HEMIS" platformasini yoki oliy ta'lim tizimini avtomatik boshqarishga qaratilgan boshqa tizimlarni joriy etgan holda ochiq, shaffof, sub'ektivlik va suiiste'molchiliklardan xoli bo'lgan ta'lim muhitini yaratish;

o'qitishning kredit-modul tizimini va talabalar bilimini baholash usullarini takomillashtirib, o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng qo'llaydi hamda o'quv bazasini takomillashtirib boradi;

rivojlangan xorijiy davlatlarning yetakchi ta'lim va ilmiy muassasalari bilan hamkorlikni, professor-o'qituvchilar va talabalar o'zaro almashinuvini doimiy amalga oshirib boradi;

xorijiy hamkorlar bilan birgalikda kadrlarni tayyorlash bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlarini (double degree) mustaqil amalga oshiradi, o'quv-ta'lim jarayoniga xorijiy olimlar va mutaxassislarni faol jalb qiladi;

falsafa doktori (Doctor of Philosophy) va fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiya ishlarini zamonaviy talablar,

iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

qonun hujattlari bilan taqiqlanmagan boshqa har qanday faoliyat turlari bilan shug'illanishi mumkin.

8. Amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnoma (litsenziya) talab q'ilinadigan faoliyat tegishli ruxsatnoma (litsenziya) qlingandan keyin amalga oshiriladi.

## 3-bob. Universitetning boshqaruv organlari

9. Quyidagilar Universitetning boshqaruv organlari hisoblanadi:

Boshqaruv kengashi - Universitetning oliy boshqaruv organi;

Direktor - MCHJda umumiy rahbarlikni amalga oshiradi hamda bir vaqtning o'zida Universitet rektori hisoblanadi;

Senat - Universitetning Akademik faoliyati bo'yicha kollegial organi hisoblanadi.

Rektor - Universitetning o'quv, o'quv-uslubiy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy faoliyatiga rahbarlik qiladi:

10. **Universitet faoliyatini yo'lga qo'yish va muvofiqlashtirish Boshqaruv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.**

Boshqaruv kengashi vakolatlari quyidagilardan iborat:

Universitetning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

Universitetni rivojlantirish dasturi va maqsadli ko'rsatkichlari loyihalarini ko'rib chiqish hamda kelishish;

Universitetga yuklangan vazifalar ijrosi, maqsadli ko'rsatkichlarga erishish holatini nazorat qilib borish va yillik hisobotlarni qabul qilish;

Universitetni moliyaviy qo'llab-quwatlash, uning faoliyatini rivojlantirish uchun homiylik xayriyalari va boshqa manbalarni jalb etishga ko'maklashish;

Universitet rektori va prorektorini lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod etish;

Universitetga berilgan binolarni ta'mirlash va rekonstruktsiya qilish, ularni zamonaviy o'quv va laboratoriya jihozlari, inventar, kompyuter va boshqa tashkilot texnikasi, shuningdek, kutubxona fondi bilan ta'minlash uchun zarur mablag'larni ajratish;

Universitet Ustavini va unga kiritilayotgan qo'shimchalar va o' gartirishlarni tasdiqlash;

iqtisodiyot tarmoqlarining· ehtiyojlarini hisobga olgan holda yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklarini hamda oliy ta'limdan keyingi ta'limni ochish.

11. **Universitetning umumiy faoliyatiga rahbarlik qilish Boshqaruv kengashi tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan rektor tomonidan amalga oshiriladi.**

Rektorning vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

Universitet nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi va bitimlar tuzish;

Universitet nomidan vakillik qilish huquqi uchun ishonchnomalar berish;

prorektorlar, professor-o'qituvchilar va barcha xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzish va ularni bekor qilish, xodimlarga nisbatan rag'batlantirish choralarini va intizomiy jazolarni qo'llash;

universitetga jalb qilingan chet ellik professor-o'qituvchilar va mutaxassislar, shuningdek, ularning oila a'zolari uchun kirish vizalarini belgilangan tartibda konsullik va boshqa hujjatlarini rasmiylashtirishni tashkil etish. Shuniilgdek, ularga belgilangan tartibda ko'p marotabalik vizalarni berish va uzaytirishni, ularni vaqtinchalik yashash joyi bo'yicha vaqtinchalik ro'yxatga olishni va uni uzaytirishni ta'minlash;

xodimlar uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqarish;

universitet tashkiliy tuzilmasida belgilangan xodimlarning mansab yo'riqnomalarini tasdiqlash;

o'quv yilida bajarilgan ishlar bo'yicha universitet Senatiga hisobot berish va Senat qarorlarini Boshqaruv Kengashiga muhokama uchun taqdim etish;

universitet buxgalteriya hisob-kitoblarini mustaqil olib borish va soliq majburiyatlari hamda boshqa to'lovlar bo'yicha kerakli hisobotlarni tegishli organlarga taqdim etish;

universitet mol-mulkini tasarruf etishi va muassislarning qarori bo'yicha bitimlar tuzish;

universitetning shtat jadvali va xarajatlar smetasi, yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya balanslarini ishlab chiqish;

universitet faoliyatini tartibga soluvchi ichki me'yory hujjatlarni tasdiqlash va qabul qilish;

universitetni qayta tashkil etish yoki tugatishda ishtirok etish.

Boshqaruv Kengashi yig'ilishi qarorlariga bo'ysunadi va bu qarorlar ijrosini amalga oshiradi.

Rektor muassislar kelishuvi asosida beligalangan muddatga tayinlanadi.

O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga va mazkur ustavga amal qilish;

universitet faoliyatiga o'z vakolatlari doirasida rahbarlikni amalga oshirish;

universitet faoliyatiga tegishli bo'lgan hujjatlarga imzo qo'yish;

universitet qabul komissiyasini boshqarish;

professor-o'qituvchilar uchun o'quv yuklamalarini tasdiqlash;

prorektor va tarkibiy bo'linma rahbarlari vakolatlari, ularning tarkibiy bo'linmalar faoliyati uchun javobgarligini belgilash;

universitet tarkibiy bo'linmalari nizomlarini ishlab chiqilishini ta'minlash;

xodimlar va talabalar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan buyruqlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;

universitet tarkibiy bo'linmalariga rahbarlarni lavozimga tayinlash va lavozimlaridan ozod etish, mehnat qonunchiligi va universitet ichki mehnat

tartib-qoidalariga muvofiq professor-o'qituvchilari, xodimlar va talabalarga nisbatan intizomiy choralar ko'rish va rag'batlantirish;

universitetning tashkiliy va moliyaviy faoliyati masalalari, uning mol-mulkini boshqarish va tasarruf etish bo'yicha qarorlar qabul qilish hamda universitetning shtat jadvali va xarajatlar smetasini tasdiqlash;

universitetning o'quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot ishlarini tasdiqlash;

universitet faoliyatini rivojlantirish to'g'risida takliflarni Boshqaruv Keqgashiga taqdim etish;

Respublika Oliy ta'lim kengashi bilan kelishgan holda to'lov-kontrakt miqdorini belgilash;

yangi bakalavriat yo'nalishlarini joriy etish yoki tugatish bilan bog'liq masalalar yuzasidan Boshqaruv Kengashiga takliflar kiritish;

O'quv adabiyotlarini nashr etishga tavsiya etish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi va nomli davlat stipendiyalariga nomzod talabalarni tavsiya etish;

Universitet talabalari va xodimlarining texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlash;

12. Rektor Boshqaruv kengashi qarorlari bajarilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

13. Universitet akademik faoliyatini tartibga solish uchun Universitet Senati tashkil etiladi va tegishli Nizom qabul qilinadi.

14. professor-o'qituvchilar va xodimlarni ijtimoiy himoya qilish, moddiy yordam ko'rsatish, lavozim maoshlariga har oylik ustamalar belgilash bo'yicha qaror qabul qiladi.

15. Universitetda Jamoatchilik kengashi va Taftish komissiyasi tashkil etilishi mumkin.

16. Universitet Rektori ayrim vakolatlarini tarkibiy bo'linma rahbarlariga yuklashi mumkin.

## 4-bob. Universitet muassislarining huquq va majburiyatlari

17. Universitet muassislari quyidagi huquqlarga ega:

universitetni boshqarishda ishtirok etish;

universitetning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning moliyaviy faoliyati.aks ettirilgan hujjatlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;

foydani olishda ishtirok etish;

Ustav fondidagi o'z ulushini yoxud uning bir qismini qonunchilik hujjatlarida va Ustavida nazarda tutilgan tartibda universitetning boshqa muassisiga yoxud uchinchi shaxslarga sotish yoki o'zga tarzda ularning foydasiga voz kechish;

Universitet tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish;

Universitet muassislari qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

18. Universitet muassislarining majburiyatlari quyidagilar:

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilish;

qonunchilik hujjatlarida va Universitetning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo'shish;

Universitet faoliyati to'g'risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmaslik;

Universitet muassislariga qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

## 5-bob. Universitetning ta'lim jarayonini va ilmiy-metodik faoliyatini tashkil etish

19. Universitet bakalavriat, magistratura va oliy ta'limdan keyingi ta'lim mutaxassisliklari bo'yicha kadrlarini tayyorlash ta'lim sohasida xalqaro e'tirof etilgan universitetlar reytingida birinchi 1000 talik ro'yxatga kirgan, shuningdek, o'z yo'nalishida yetakchi hisoblangan Turkiya Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari asosida O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar (o'quv rejasi va dasturlari, o'quv adabiyotlari) bilan to'liq ta'minlangan holda amalga oshiriladi.

Universitet bitiruvchilariga Turkiya Respublikasining hamkor Universitetlari diplomi, shuningdek Universitetning belgilangan namunadagi diplom berishni ta'minlaydi.

20. Universitetda o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlariga Boshqaruv kengashi tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

21. Universitetda kunduzgi ta'lim yo'nalishida o'qish o'zbek, turk va ingliz tillarida olib boriladi.

22. Universitetda kadrlar tayyorlash ishlab chiqarishdan ajralgan hamda ajralmagan holda olib boriladi.

23. Universitetda o'quv yili bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida ikki semestrga bo'linadi va uning har birida talabalarning o'zlashtirishi kredit tizimi va GPA shaklida olib boriladi.

24. Universitetda o'quv jarayoni Boshqaruv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan "Universitetda ta'limning kredit tizimi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq olib boriladi.

25. Respublikaning ilmiy-tadqiqot va oliy ta'lim muassasalari, vazirliklari hamda idoralarining yetuk mutaxassislari kontrakt asosida va mehnatiga soatbay haq to'lanadigan shartlarda o'qituvchilik ishiga jalb qilinishi mumkin.

Chet mamlakatlarning olimlari, mutaxassislari va ekspertlari o'quv, metodik va ilmiy faoliyat uchun kontrakt asosida Universitetning budjetdan tashqari va budjet mablag'lari hisobidan haq to'langan holda Universitetga jalb qilinishi mumkin.

26. Ilmiy-tadqiqot ishlari, qoida tariqasida, grantlar yoki shartnomalar asosida o'tkaziladi. Shartnoma asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishdan tushgan mablag'lar tegishli xarajatlar qoplangach, Universitetning moddiy

bazasini rivojlantirishga, uning xodimlarini rag'batlantirishga va Universitet oldida turgan boshqa vazifalarni hal qilishga yo'naltiriladi.

27. Universitetda ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalari, mustaqil ta'lim olish vositalarini, modul tizimi hamda masofaviy ta'lim berishni qo'llash hisobiga mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy-uslubiy ishlar amalga oshiriladi.

## 6-bob. Universitetning talabalari

28. Universitet rektorining buyrug'i bilan o'qishga qabul qilingan shaxs Universitetning talabasi hisoblanadi.

29. **Talabalar quyidagi huquqlarga ega:**

- fan, texnika, zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti va yutuqlariga mos bilim olish;
- Universttet axborot resurs markazida mavjud bo'lgan kitoblar, davriy nashrlar, elektron ta'lim vositalaridan belgilangan tartibda bepul foydalanish;
- bepul maslahatlar va tavsiyalar olish;
- auditoriyalar, ta'lim jarayoniga oid vositalardan o'rnatilgan tartib a bepul foydalanish;
- ta'lim jarayoni samaradorligi va ta'lim sifatini oshfrish yuzasidan o'z taklif va mulohazalarini, tanqidiy fikrlarini belgilangan tartibda ta'lim muassasasi, fakultet va kafedra rahbariyatiga bildirishga va ularni ko'rib chiqilishini talab qilish;
- Universitet va fakultet miqyosida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlarda ishtirok etish;
- ilmiy tadqiqot ishlarining barcha turlarida, ilmiy konferensiyalar, simpoziumlarda ishtirok etish, ularning natijalarini nashr etish va bu haqda axborotlar berish;
- Universitetda qonuniy ravishda faoliyat yuritayotgan jamoat birlashmalariga a'zo bo'lish va ular ishida qatnashish;
- o'qishdan tashqari vaqtlarda ma'naviy-ma'rifiy va boshqa jamoat ishlarida ishtirok etish;
- o'qishdan bo'sh vaqtlarida Universitetning o'zida, shuningdek, boshqa joylarda mehnat qonunchiligiga muvofiq ishlash;
- yetakchi xorijiy ta'lim muassasalarida akademik almashinuvda ishtirok etish. Talaba sifatli va yuqori saviyada bilim olishi, tanlagan ixtisosligi bo'yicha yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishish uchun zarur bo'lgan qonunchilik hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa huquqlardan foydalanishi mumkin.

Talaba o'z huquqlarini suiiste'mol qilmasligi, bu huquqlardan o'zga shaxslar manfaatiga zid maqsadlarda foydalanmasligi shart.

30. **Talabalarining majburiyatlari:**

- o'quv reja va das!urlar talablarini belgilangan muddatlarda bajarish hamda bilimlarni egallash;

- mazkur Ustav, Universitet ichki tartib-qoidalari, odob-axloq kodeksi, talabalar turar joyi qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga rioya etish;

- Universitet binolari va uning boshqa mol-mulkini asrab-avaylash, to'lov-kontrakt bo'yicha majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish;

- vatanga va xalqiga halol xizmat qilishga tayyor, yuqori bilimli mutaxassis bo'lib yetishish uchun puxta bilim olish, o'z kasbiy salohiyatini rivojlantirish;

- ta'lim olish jarayonida jamiyatning axloqiy tamoyillariga, ma'naviy qadriyatlariga, qonun talablariga, o'zaro munosabatlarning yuksak talablariga javob beruvchi qoidalarga qat'iy amal qilish;

- tanlagan ixtisosligi bo'yicha chuqur nazariy bilim olish va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish;

- o'quv jarayoni talablariga rioya qilishi, o'quv mashg'ulotlarini uzrli sababsiz qoldirmaslik, darslarga kech qolib kelmaslik, dars mashg'ulotlari yakunlanmasdan avval ketib qolmaslik;

- ta'lim jarayoni bilan bog'liq vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, o'qituvchilarning fanni o'zlashtirish bilan bog'liq topshiriqlarini o'z vaqtida va talab darajasida bajarish, mashg'ulotlarga zarur o'quv qurollari bilan kelish;

- tegishli kafedra va fakultet bilan mustahkam aloqada bo'lish, fakultet rahbariyatining qonuniy topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish;

- bilimlarni egallashda tashabbus va g'ayrat ko'rsatish, loqaydlikka yo'l qo'ymaslik;

- barcha bilan xushmuomalada bo'lish;

- Universitet mol-mulkiga ehtiyotkor va tejamkor munosabatda bo'lish, ularga qasddan yoki ehtiyotsizlikdan ziyon yetkazmaslik, ziyon yetkazilgan taqdirda moddiy zarar o'rnini qoplash, moddiy ashyolarni auditoriyadan yoki binodan tashqariga ruxsatsiz olib chiqmaslik;

- bino ichida, yo'laklarda, auditoriyalarda sanitariya qoidalariga rioya qilishi, ifloslantirmasligi, alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi va iste'mol qilinishiga yo'l qo'ymaslik;

- kiyinish madaniyatiga rioya qilish, xususan tashqi ko'rinishi va yomon xulq-atvori bilan boshqalardan ajralib turmasligi, axloq-odob normalariga so'zsiz bo'ysunishi;

- o'quv mashg'ulotiga kelmagan holatda (shu jumladan, kasalligi tufayli) uch kundan kechikmasdan dekanatni xabardor qilish, qatnashmaslik sabablarini ko'rsatish;

- xorijiy tashkilotlar grantlarida qatnashgan taqdirida bu haqda fakultet dekanini xabardor qilish, grant bilan bog'liq holda chet elga jo'nab ketishdan avval o'rnatilgan tartibda ruxsat olish;

- o'quv intizomi, Universitet Senati qarorlari, rektor buyruqlari hamda ta'lim tizimiga doir normativ-huquqiy hujjatlarda qo'yilgan maqsad va vazifalarga, shuningdek, o'zining majburiyatlariga rioya etish;

Talabalarga milliy, irqiy, diniy adovatni targ'ib qiluvchi har qanday shakldagi materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish va targ'ib qilish taqiqlanadi.

31. O'qish davrida o'quv va ilmiy-tadqiqot faoliyatida yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan talabalar Universitet mablag'lari, shuningdek, xalqaro va xorijiy tashkilotlar grantlari hisobiga hamda Universitetning xorijiy hamkorlari bilan shartnomalari asosida yetakchi xorijiy ta'lim muassasalariga talabalarning akademik almashinuvi doirasida o'qishga yuborilishi mumkin.

Talabalarning akademik almashinuvini ta'minlash bo'yicha yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni mustahkamlash maqsadida Universitetda xorijiy mamlakatlarning talabalari ham o'z o'qishini davom ettirishi mumkin.

Talabalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va nomli davlat stipendiyalari va Universitetning maxsus stipendiyalarini olish huquqiga ega.

32. Harbiy xizmatni o'tash, salomatligini tiklash, homiladorlik va tug'ish, shuningdek bolalarni parvarish qilish, oilasining betob a'zosini (otasi, onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar, turmush o'rtog'i, farzandi) parvarish qilish uchun talabaga akademik ta'til berilishi mumkin.

33. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq kunduzgi o'quv shaklida ta'lim olayotgan talabalarga Universitetda o'qiyotgan vaqti davomida harbiy xizmatga chaqirish muddatini kechiktirish imkoni beriladi.

34. Universitetning Talabalar turar joyi sig'imidan kelib chiqqan holda muhtoj talabalar Universitet talabalar turar joylaridan sanitariya me'yorlari va qoidalariga javob beradigan joy bilan ta'minlanadi.

Talabalar turar joyi uchun to'lov talabalar turar joylarida kommunal-maishiy xizmatlar uchun to'lovlarni inobatga olib, universitet Senati tomonidan belgilanadi.

35. Universitetdan chetlashtirilgan talaba o'qishdan chetlashtirish tartibi va qoidalari asosida qayta o'qishga tiklanish huquqiga ega. Universitetning talabalari belgilangan tartib va qoidalar asosida boshqa oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishini ko'chirish (ko'chirib tiklanish) huquqiga ega.

36. O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, talabalarni o'qish vaqti hisobidan ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan ishlarga jalb etish man etiladi.

37. Talaba o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda unga nisbatan hayfsan va talabalar safidan chetlatish intizomiy jazo choralari qo'llaniladi.

38. Talaba Universitetdan quyidagi hollarda chetlashtirilishi mumkin:

a) o'z xohishiga binoan;

b) o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan;

v) o'quv intizomini va oliy ta'lim tashkilotining ichki tartib-qoidalari hamda odob-axloq qoidalarini buzganligi uchun;

g) bir semestr davomida darslarni uzrli sabablarsiz 74 soatdan ortiq qoldirganligi sababli;

d) o'qish uchun belgilangan to'lov o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi sababli (to'lov-kontrakt bo'yicha tahsil olayotganlar uchun);

e) talaba sud tomonidan ozodlikdan mahrum etilganligi munosabati bilan;

j) sud qaroriga ko'ra kirish imtihonlarida belgilangan tartibni buzganligi aniqlanganda (ushbu holatda talabalar safidan chetlashtirilganlar talabalar safiga qayta tiklanmaydi);

z) vafot etganligi sababli.

39. Universitet tashabbusi bilan o'qishdan chetlashtirish 30 yoshdan oshmagan talabalar uchun Universitetning Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti bilan ham kelishilishi mumkin.

40. Talabaga nisbatan qo'llanilgan intizomiy jazo yuzasidan ma'lumot uning shaxsiy yig'ma jildida saqlanadi.

## 7-bob. Universitetning professor-o'qituvchilari tarkibi, o'quv-yordamchi va ma'muriy-xo'jalik xodimlari

41. Universitetda professor-o'qituvchilar tarkibi, ilmiy xodimlar, muhandislik-texnika, ma'muriy-xo'jalik, ishlab chiqarish, o'quv-yordamchi va boshqa xizmatchilar lavozimlari mavjud.

Professor-o'qituvchilar tarkibiga professor, ta'lim yo'nalishi lideri, dotsent, katta o'qituvchi, o'qituvchi (assistent) va o'qituvchi-stajyor lavozimlari kiradi.

42. Universitetning professor-o'qituvchilar bilan mehnat shartnomasini tuzish, o'zgartirish va bekor qiHsh amaldagi mehnat qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

43. Professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlar quyidagi huquqlarga ega:

- belgilangan tartibda universitet Senati a'zoligiga saylash va saylanish;
- Universitetning faoliyatiga taalluqli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish;
- Universitetning axborot-resurs markazi, o'quv va ilmiy bo'linmalarning xizmatlaridan, shuningdek, ijtimoiy-maishiy, tibbiy va boshqa bo'limlar xizmatidan jamoa shartnomasiga muvofiq foydalanish;
- o'qitishning uslub va vositalarini tanlash, o'quv va ilmiy jarayonning yuqori sifatini ta'minlovchi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- Universitet rahbariyatining buyruqlari yuzasidan belgilangan tartibda murojaat qilish;
- tanlovlarda qatnashish, lavozimlarni egallash;
- talabalarning ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, fundamental, amaliy va innovatsiya loyihalari, xorijiy ilmiy loyihalar hamda xo'jalik shartnomalarida ishtirok etish;
- darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash, monografiya va ilmiy maqolalar yozish, ixtiro uchun patent, dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olish;
- xorijiy yetakchi olimlar, ilmiy markazlar va ta'lim muassasalari bilan xalqaro aloqalarni rivojlantirishda ishtirok etish;

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasiga oid qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

44. Professor-o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- ta'lim to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, mehnat va texnologiya intizomi, Universitet Ustavi, ichki mehnat-tartib qoidalari, odob-axloq kodeksiga va korrupsiyaga qarshi kurashish dasturiga qat'iy rioya qilish;
- o'zining xizmat vazifalarini vijdonan bajarish va murabbiylik sha'niga dog' tushirmaslik;
- ish jarayonida xushmuomalada bo'lish;
- ish beruvchining qonuniy buyruq va farmoyishlarini bajarish, har yili tasdiqlanadigan shaxsiy reja asosida o'quv-uslubiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish, xususah:
- tarbiyaviy ishlarni olib borish, talabalar bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda bevosita ishtirok etish, shu jumladan darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladigan tadbirlarda qatnashish;
- mehnatni muhofaza qilish, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasiga doir qoidalariga rioya qilish;
- Universitet mol-mulkini avaylash, undan oqilona foydalanish;
- ish beruvchiga bevosita o'zining aybi bilan yetkazilgan haqiqiy moddiy zararni qoplash;
- jamoatchilik ishlarida qatnashish;
- pedagogik va ilmiy jarayonning samaradorligini ta'minlash;
- bir yoki ikkita xorijiy tilni bilishi;
- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik, ijodiy qobiliyatni shakllantirish;
- o'zining odobi, madaniyati, ma'naviy saviyasi bilan o'rnak bo'lish;
- kiyinish madaniyatiga rioya etish;
- o'zi o'qitadigan fan dasturini muntazam fan va texnika yutuqlari asosida boyitib borish;
- darslarni yuqori saviyada o'tish;
- fan yo'nalishiga tegishli yangi manbalarni topish va ular bilan talabalarni tanishtirib borish;
- har o'quv yili boshlangunga qadar o'zi o'qitadigan fan(lar)ning ishchi o'quv dasturi, kalendar rejasi va reyting nazoratlari jadvalini ishlab chiqish;
- reyting tadbirlarini o'z vaqtida o'tkazish;
- talabalar bilimini xolisona baholash;
- yangi pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash;
- ilmiy salohiyat va pedagogik mahoratini oshirish;
- talabalar ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish;
- o'zining mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqarish korxonasi va muassasalarda mavjud muammolar haqida ma'lumot va tasawurlarga ega bo'lishi hamda ishlab chiqarish jarayonida mavjud muammolarning yechimiga oid tadqiqot mavzusiga ega bo'lish;

- olib borayotgan tadqiqot mavzusi asosida o'z yoki hammualliflikdagi ishlanma va texnologiyalarga ega bo'lishi;

- mutaxassisligi bo'yicha tayanch oliy ta'lim tashkilotlari va ishlab chiqarish korxonalarida tegishli muddatlarda malaka oshirib borishi yoki stajirovkadan o'tishi;

- oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol qatnashish.

45. Universitetning ma'muriy-xo'jalik, muhandislik-texnika, o'quv-yordamchi va boshqa xodimlarining huquq va majburiyatlari Universitetning Ichki tartib qoidalari, odob-axloq kodeksi, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi va lavozim yo'riqnomalari bilan belgilanadi.

## 8-bob. Universitetning moliya-xo'jalik faoliyati

46. Universitetning faoliyatini moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

Respublika oliy ta'lim kengashi mablag'lari;

Universitetning o'z mablag'lari;

to'lov-kontrakt asosida talabalarni o'qitishdan va shartnoma asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatishdan tushgan mablag'lar;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari va grantlar;

qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

47. Universitet o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va o'z faoliyat yo'nalishlari va xizmatlariga narxlarni bozor kon'yunkturasidan kelib chiqib belgilaydi.

48. Universitet mustaqil ravishda buxgalteriya hisobini, statistika va moliyaviy hisobotni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

49. Boshqaruv kengashi qarori bilan kelishilgan holda Universitetning tashkiliy tuzilmasi, shtat jadvalin·i va mehnatga haq to'lashni O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal qiladi.

50. Universitet faoliyatiga aid hisobotlarni qonunda belgilangan tartibda davlat organlariga taqdim qiladi.

## 9-bob. Universitetning hujjatlarini saqlash tartibi

51. Universitet quyidagi hujjatlarni saqlashi shart:

Universitetning hujjatlari, shuningdek jamiyatning hujjatlariga kiritilgan hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar;

Universitet ishtirokchilari yig'ilishining bayoniga asosan jamiyatning tashkil etish va uning ustav fondiga qo'shiladigan pulsiz hissalarini pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qaror, shuningdek jamiyatni tashkil etish bilan bog'liq boshqa qarorlarni o'z ichiga olgan bayonnomasi; .

Universitet davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat;

Universitetning o'z balansida turgan mol-mulkka bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;

Universitetning filiallari va vakolatxonalari to'g'risidagi nizomlar va h.k.;

Universitet muassislari qarorlari, boshqaruv kengashi, kollegial organi va jamiyatning taftish komissiyasi majlislarining bayonnomalari;

Universitet taftish komissiyasining (taftishchisining) va auditorlik tashkilotining xulosalari;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.

52. Yuqorida korsatilgan hujjatlar MCHJ/Universitet joylashgan manzilda saqlanadi.

53. Universitet muassislarining talabi bilan unga axborot, shuningdek hujjatlarini unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan taqdim qilishi yoki nusxa berishi shart.

## 10- bob. Universitetning xalqaro faoliyati

54. Universitet ta'lim faoliyati yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadi, chet davlatlarning tegishli o'quv yurtlari bilan bevosita belgilangan tartibda aloqalar o'rnatish huquqiga ega.

55. Chet el fuqarolarini o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish qonunchilikka muvofiq chet el fuqarolari va xorijiy yuridik shaxslar bilan bevosita tuzgan shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

Universitet o'z imkoniyati doirasida professor-o'qituvchilar va xodimlarning chet mamlakatlarda stajirovkasini tashkil etiladi.

56. Universitet turli xalqaro ta'lim faoliyati, shuningdek qonun bilan cheklanmagan boshqa turdagi ilmiy xarakterdagi xalqaro iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega.

## 11- bob. Universitetning ustav fondi

57. Universitetning Ustav fondi 1 250 000 000 (bir milliard ikki yuz ellik million) so'mni tashkil etadi.

58. Ustav fondining 20% ulushi (250 000 000 – ikki yuz ellik million so'm mablag' ko'rinishida) Respublika oliy ta'lim kengashiga, 20% ulushi (Turkiya Respublikasining Muassis universitetlari tomonidan ta'minlanadigan o'quv dasturlari va kutubxona bazasi ko'rinishida) Turkiya oliy ta'lim kengashi (Turkiya Respublikasi)ga, 60% ulushi (750 000 000 – yetti yuz ellik million so'm mablag' ko'rinishda) Turk dunyosi ta'lim va ilm-fan konsorsiumiga tegishli.

59. Universitetning Ustav fondi Universitetning Muassislari qaroriga ko'ra quyidagicha ko'paytirilishi mumkin:

muassislarning qo'shimcha hissasi bilan;

universitetning mulki asosida;

universitetga qabul qilinadigan uchinchi shaxslarning qo'shimcha hissalari.

## 12- bob. Foydani taqsimlash tartibi

60. Foydaning taqsimlanishi universitetning muassislari tomonidan mazkur Ustavda ko'rsatilgan ulush miqdoriga ko'ra amalga oshiriladi.

## 13- bob. Yakunlovchi qoidalar

61. Universitet Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, Universitetni qayta tashkil etish va tugatish muassislar qaroriga binoan amalga oshiriladi.

62. Mazkur Ustav davlat ro'yxatidan o'tgan kundan boshlab kuchga kiradi.

**Turkiy davlatlar xalqaro universiteti boshqaruv kengashi raisi** **O. Abduraxmanov**